



mustaqil oilaviy hayotga tayyor bo'lishlari va fuqarolik jamiyatining yoshlarini oilani muqaddas bilishga o'rgatish orqali ularni ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga yordam beradi [6].

Oila psixologiyasi ijtimoiy psixologiyaning bir tarmog'i sifatida XX asrning oxirlariga kelib shakllangan. XXI asrga kelib esa uning inson hayotidagi ahamiyati va jamiyat ma'naviyatini barqarorlashtirishdagi roli yanada sezila boshladi. Zero, dunyoning qator mamlakatlari, jumladan, rivojlangan davlatlarda ham oila va nikoh munosabatlaridagi boiron, psixoterapevtlar yordamiga muhtojlik kabi holatlar ushbu maskanning muammolarini o'rganish va shu yo'nalishda maqsadli tadqiqotlar, ilmiy-amaliy tadbirlarni amalga oshirish lozimligini uqtirmoqda. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi va ushbu masalaga qarashlar tarixidan shu narsa ayon boldiki, inson, uning kim bilan va qanday yashashi muammosiga qiziqish qanchalik uzoq o'tmishga borib taqalsa, oila psixologiyasining fan tarmog'i sifatida shakllanishi shunchalik navqiron va yosh bolib, uning shakllanishi yangi davrga tog'ri keladi [7].

Kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. Oila — jamiyat hayotining kichik bir debochasi bo'lib, har tomonlama sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ma'sul bo'lgan g'oyat muhim tarbiya o'chog'idir. O'zbek oilasi a'zolarining barchasini savodxon, ma'lumotli deb atasak, xato qilmagan bo'lamiz, ana shu imkoniyatlar ta'sirida o'g'il va qizlar bilimli, fikr-mulohazali, topqir, ishbilarmon, aql-zakovati bo'lib voyaga etmoqdalar. Oiladagi bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etadi, ota-onalar farzandlariga axloq-odob, ruhiyat va ma'naviyatga oid bilimlardan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasliklari, balki o'zlari ham tarbiyaning o'ziga xos sir-sinoatlari, hususiyatlari, uning mazmun-mohiyati va ma'nosiga doir eng yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishlari kerak bo'ladi. Oilaning asosiy tayanchi bo'lgan ota, hayotning barcha mashaqqatlaridan totib ko'radi, o'zining bukilmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshlilik bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi [1].

Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim [2].

Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, ideologik va psixologik munosabatlarning uzviy birlashuvi natijasida vujudga keladi. Psixologiya fanining yosh sohalaridan biri – oila psixologiyasi hisoblanadi. Oila psixologiyasining rivojlanishi va unga turli sohalar mutaxassislari – psixiatrlar, psixoterapevtlar, o'qituvchilar, shifokorlar hamda ijtimoiy xodimlar tomonidan qiziqishning ortishi zamonaviy oila boshidan kechirgan inqiroz tufayli yuzaga keladi. Adabiyotlar tahlilida zamonaviy oila inqirozi demograflar fikricha, institutsional inqiroz, ya'ni oilaning





ijtimoiy institut sifatidagi inqirozi, birinchi navbatda, eng muhim va asosiy funksiyalardan biri reproduktivlik hisoblangan oilaning “jamiyatning bir qismi” deb atalishida namoyon bo‘ladi [5].

Adabiyotlar tahlilida oila ma’lum bir tuzilma va xususiyatlarga ega tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Har qanday tizim singari, u quyidagi bir qator belgilar bilan tavsiflanadi [3]:

- o‘zaro bog‘liqlik: tizimning alohida elementlarining o‘zaro ta’siri;
- xolizm: tizimning alohida elementlari bir butunga birlashib, asl individual xususiyatlardan farq qiladigan yangi xususiyatlarga ega bo‘ladilar;
- asosiy parametrlari quyidagilardan iborat bo‘lgan tarkibiy tashkilot ierarxiya yoki struktura elementlarining subordinatsiyasi;
- oila ichidagi munosabatlarni va oila hamda atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi chegaralarning mavjudligi;
- uyg‘unlik; – oilaning rolli tuzilishi;
- tizim ichidagi jarayonlarning o‘ziga xosligi (sirkulyar, spiralsimon; davriy, uzluksiz);
- dinamizm, yoki taraqqiy etish qobiliyati;
- o‘z-o‘zini tashkillashtirish qobiliyati: oilaning yaxlit, muvozanatli tizim bo‘lib qolishi va buzilmasligiga imkon beruvchi oila ichidagi kuchlarning mavjudligi;
- gomeostaz va rivojlanish dialektikasi. Oilani tizim sifatida tahlil qilishning murakkabligi har qanday tizim boshqa, kattaroq tizimlarning bir qismi ekanligi hamda ular bilan bevosita o‘zaro munosabat va o‘zaro ta’sirda ekanligini hisobga olish zaruratidadir.

Biz oila masalasini yoritishda oila tipologiyasi va funksiyalarini belgilashdagi adabiyotlar tahliliga e’tiborimizni qaratmoqchimiz [4]. Oila a’zolarining kattaligi va soniga qarab (shuningdek, avlodlar bo‘linishi), nafaqat ota-onalar, balki ularning farzandlari o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan, shuningdek, individual oila funksiyalarini bajarishga asoslangan kabi har xil turlarga, mezonlarga ajratishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, oila psixologiyasi zamonaviy jamiyatda inson shaxsining barkamol rivojlanishi, sog‘lom ijtimoiy muhit va mustahkam ma’naviy qadriyatlar asosida shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. U nafaqat oilaviy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini o‘rganadi, balki sog‘lom, barqaror va baxtli oilani shakllantirishda psixologik ko‘makni ta’minlaydi. Shu boisdan, bu fan yo‘nalishi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar bugungi kunda nafaqat ijtimoiy, balki ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda ham beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Oila psixologiyasining chuqur o‘rganilishi va amaliyotda qo‘llanishi sog‘lom jamiyat poydevorini yaratishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avloniy. A. ”Turkiy guliston yohud axloq”.T.,”O‘qituvchi”.1994
2. Imamova. Oilada bolalarning ma’naviy axloqiy tarbiyasi-T.”O‘qituvchi”.1999





3. Jobborova G.K. (2022). Formation of Ecological Culture of Primary School Students. Eurasian Scientific Herald, №7, 2022. – P. 240–242. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1197>

4. Zuzana Budayová. Family problems of today. The scientific monograph. ISBCRTI, Dublin, Ireland, 2020. 104 p. DOI: 10.13140/RG.2.2.27685.01764

5. Олифи́рович Н.И., Зинкевич-Куземкина Т.А., Велента Т.Ф. Психология семейных кризисов. – СПб.: Речь, 2006. – 360 с

6. Karimova V.M., N.Sh. Umarova, Oila psixologiyasi 2020 Chirchiq 157-bet

7. Karimova, S. (2022). Oila psixologiyasi mustaqil fan sifatida: oilaviy munosabatlarni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, oilaviy psixologiyaning tadqiqot metodlari. Ilmiybaza.

